

Baxodir TURSUNOV,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail:tbahodir852@gmail.com

ADU Fuqarolik jamiyati nazariyasi kafedrası professorı, t.f.d O.K.Komilov taqrızı asosida

DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA MANTIQ FANINING AHAMYATI VA VAZIFASI

Аннотация

Ushbu maqolada, Logika (mantiq) atamasi grekcha (logos) so'zidan olingan bo'lib fikir, so'z, aql, qonunyat manolarini bildiradi. U o'z ichiga obektiv reallikni aks ettiruvchi fikirlash jarayoniga xos bo'lgan qonunlarni qamrab olish bilan bir qatorda muloxaza qilish qonunlarini ifodolovchi fanga ham aylanadi.

Kalit so'zlar: Logika (mantiq), fikir, so'z, aql, hayotda "qancha narsalar mantig'i" "hayot mantig'i" "voqealar mantig'i"

ЗНАЧЕНИЕ И ФУНКЦИИ НАУКИ ЛОГИКИ

Аннотация

В данной статье термин Logic (логика) происходит от греческого слова (logos), означающего мысль, слово, разум, закон. Помимо освещения присущих процессу мышления законов, отражающих объективную реальность, она становится еще и наукой, выражающей законы рассуждения.

Ключевые слова: Логика (логика), мысль, слово, ум, «логика скольких вещей», «логика жизни», «логика событий» в жизни.

SIGNIFICANCE AND FUNCTION OF THE SCIENCE OF LOGIC

Annotation

In this article, the term Logic (logic) is derived from the Greek word (logos) meaning thought, word, mind, law. In addition to covering the laws inherent in the process of thinking that reflect objective reality, it also becomes a science expressing the laws of reasoning.

Key words: Logic (logic), thought, word, mind, "the logic of how many things" "the logic of life" "the logic of events" in life

Kirish. Davlatimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, bozor munosabatlariga o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan hozirgi zamonda mantiq (logika) ilmini o'rganish har bir oliy malumotli mutaxassis uchun zarur bo'lib qoldi. Sababi fikrning izchillik aniqlik to'g'rilik va uning isbot qilingan bo'lishi haqiqatga erishishning yo'llaridan biridir. Qolaversa mantiq doim falsafaning tarkibiy qismi bo'lib insonlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muxim ma'naviy qurol vazifasini ado etib kelgan.

Davrimiz ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar bilan boyib bormoqda. Ularni taxlil qilish uchun yangicha munosabat, yangicha mantiqiy fikirlash talab qilinadi. Aslida mantiq ilmi markaziy osiyo xalqlari uchun yangilik emas. Uzuq zamonlardan buyon maktab va madrasalarda boshqa bilimlar qatorida ushbu ilmi o'rganish zaruriyat hisoblanar edi. Sababi mantiq ilmining asosiy vazifasi umuminsoniy qadiryat umuminsoniy fikirlash jarayoni bilan shug'ullanib mafkura masalasiga oid vazifalar o'zini xolis qilishdan iborat edi. Shunday ekan ushbu fanga hozirgi zamonda talabiga binoan e'tibor bergan sari kuchayib boorish ham tabiiydir.

Logika (mantiq) atamasi grekcha (logos) so'zidan olingan bo'lib fikir,so'z,aql, qonunyat manolarini bildiradi. U o'z ichiga obektiv reallikni aks ettiruvchi fikirlash jarayoniga xos bo'lgan qonunlarni qamrab olish bilan bir qatorda muloxaza qilish qonunlarini ifodolovchi fanga ham aylanadi. Boshqacha qilib aytganda mantiq yaqin va o'rta sharq musulmon mamlakatlarida shu arabcha atama bilan yuritiladi. Ikki xil manoda qo'llaniladi [1]

U narsa va xodisalar taraqqiyotidagi xodisalarini uzviy bog'lanishini yoki tafakkur yordami bilan vujudga keladigan katigorya lar (tushunchalar) aloqasi va bog'lanishini ifodalaydi. Bu yerda shuni aloxida aytib o'tish joizki, agar so'z narsalarning tarkibi, bog'lanishi, izchilligi ustida borsa-obektiv mantiq va aksincha, agar so'z fikirlar bog'lanishi, izchilligi, asoslanishi, tafakkur taraqqiyoti va qonunlari haqida boqsa – subektiv mantiq deyiladi.

Mantiq deb tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini o'rganadigan fanga aytiladi. Aslida tafakkur nafaqat mantiq fani tomonidan, balki birqancha boshqa fanlar tomonidan, masalan: pisixologiya, kibernetika, pedogogika va boshqa fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Lekin ular tafakkurni ma'lum bir aspektini tomonini o'rganadilar. Biroq olamni bilish jarayonini to'liq holda faqat filosofiyagina o'rganganligi sababli, logika (mantiq) bilayotgan bilib borayotgan, tafakkurni bir tomoninigina, faqat bir tomonini o'rganganligi uchun bu fan falsafiy fan bo'lib falsafaning bir tarmog'I shaklida ifodalanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi : O'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlar sharhi asosida muammoni dolzarbliligini aniqlash;

- Muammoni hal qilish yo'llarni aniqlash va samarali variantini tanlash;
- Tadqiq etilayotgan muammoni hal etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash va ularni tajribada sinovdan o'tkazish;
- Olingan natijalar asosida xulosa va takliflar berish;
- Natijalarni tegishli sohalarda qo'llash imkoniyatini aniqlash;

Muayyan xalq va davlatning hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega biror bir fenomen yoki u haqidagi tushuncha va tamoilalar o'z-o'zidan osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelmaydi. Shu ma'noda har qanday xodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Hayotda "qancha narsalar mantig'i" "hayot mantig'i" "voqealar mantig'i" kabi so'zlarni uchratamiz. Bunday vaqitlarda so'z obektiv taraqqiyot,voqealarning o'zaro bog'lanishi, ma'lum tartibning ichki zaruriyati haqida borayotganligini tushunish kerak. Agar so'z biror odamning nutqidagi mantiqning kuchi yoki aksincha, uning muhokamasida mantiq yo'qligi haqida boradigan bo'lsa, u vaqitda so'z ichki zaruriy qonuniyatli bog'lanish , borliqdagi narsalar va hodisalar haqida emas, balki bizning buyumlar haqidagi muhokamamiz,mulohazamiz, fikrimiz haqida borayotganligini esda tutmoq kerak. Yuqoridagi aytilgan so'zlarga tayangan holda savol bersak: xo'sh, bizning fikrimiz bog'lanishi va taraqqiyotidagi ichki zaruriy qonuniyati nimaga bog'liq?

Fikrimiz bog'lanishi va taraqqiyotidagi ichki zaruriy qonuniyat inson irodasi, uning ruhiy holati, intilishi, hohshi va uning boshqalarga muhtoj bo'lmagan qonuniyatlardir. Bu qonuniyatlar obektiv dunyo predmetlari va ular orasida bog'lanish va

munosabat harakteriga bog'liq. chunki ana shular inson tafakkuri va mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun ham tafakkur mantig'ini narsalar mantig'i tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki mantig', yani tafakkur mantig'i narsalar mantig'i yoki obektiv mantig' inikosidir [2].

Aytilgan gaplarni quydagicha ham isbotlash mumkin. Malumki bilish nazariyasi (bu bizga filosofiyadan ma'lum) inikoo nazariya prinsiplariga asoslanadi. Ularga binoan moddiy narsalar bizning ongimizdan tashqari holatda mavjud. Inson miyyasida shu narsalarning ta'siri ostida ularning "izlari" "kopiylari" qoladi. Bu obrazlar "kopiylar" obektiv reallikdagi predmetlarni haqiqiy aksidir. Shuning uchun ham miyyamizdagi ularning izlari "obrazlari" bizni olamni bilishga qaratilgan ilmimizni boyitadi. Biz tafakkurimizdagi muhokama yordami bilan bir hukumdan ikkinchi hukumni chiqarib, fikirda aks ettirilgan buyumlar va ular munosabatini aniqlaymiz. Chunki obektiv reallikdagi narsa va hodisalarning turli munosabati bizning muhokamamizda ham o'z ifodasini topadi deb yuqorida aytgan edik. Masalan: malum balandlikkacha

1028 sm yerning tortish kuchi gravitatsion kuch tufayli har qanday narsa yerga tushadi, yani og'irlikka ega deymiz. Butun olam tortishish qonuniga binoan narsalarni yerga tushish vaqti turlicha bo'ladi, chunki ularning massalari turli deb muhokamamizni ifodalaymiz. Bunday muxokama mantiqiy bo'lishining bo'lishining asosiy sababi shundaki, biz haqiqatdagi bog'lanish qanday bo'lsa, uning o'zini huddi shunday ifodalaymiz.

Tafakkur murakkab, ko'p qirralidir. Shu bilan birga u bir butunlikni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda biz insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarda, tartibli, aniq, asosli, yani mantiqiy fikir yuritishni tushinamiz. Mantiqiy to'g'ri fikir yuritishni o'rganuvchi maxsus ilm tarmog'i bo'lgan fan logikadir. [3]

Shu manoda mantiq inson tafakkurining shakillari va qonun – qoidalari haqidagi fandir.

Jamiyat va madaniyat tarixida kishilar dunyoni bilish va iuni o'zgartirishning o'tkir quroli bo'lgan tafakkurning xislatlari, sirlarini bilishga ko'pdan beri qiziqib kelganlar. Bunday amaliy va nazariy ehtiyoj natijasida tafakkur yordamida dunyoni bilishning xususiyatlarini o'rganuvchi bilimlarning maxsus tarmog'i logika fani vujudga keldi. Logika – mantiq nazariy bilimlar sistemasida muxim o'rin tutadi, falsafani boshqa bo'laklari bilan uzviy bog'liqdir.

Mantiq fanining mavzu baxsi bo'lgan tafakkurning kelib chiqishi uning olamni bilishda tutgan o'rni umuman bilishning o'zi nimadan iboratligi, qanday bosqichlardan tashkil topishi, bilimning vujudga kelishi kabi masalalarni yoritishda filosofiya faniga asoslanamiz.

Bilish va uning asosiy vositalari.

Bilish jarayonining mohiyati. Inson faoliyati bilish jarayoni bilan doim uzviy bog'liq. Chunki bilim, fan, odamning aqliy qudrati, uning tabiat sirlarini ochib, tabiiy hodisalarni o'ziga bo'ysundirishi, jamiyatni o'zgartirishi bilishga asoslanadi. Falsafaga tayangan xolda insonning bilish jarayoni har tomonlama, ilmiy ravishda tushunib olishimiz kerak.

Falsafiy nuqtayinazardan bizga ma'lumki, inson o'zaro va ijtimoiy munosabatlardagina inson bo'la oladi. Bu munosabatlarni yuzaga keltiradigan narsa mehnatdir. Demak inson o'z mohiyati bilan ijtimoiydir. Shuning uchun unga xos bo'lgan xolat va jarayonlar xam ijtimoiy xayot ta'sirida vujudga keladi. Bu xolat insonagina xos bo'lgan til va tafakkurda emas, inson o'z amaliy faoliyati jarayonida extiyojlarini qondirish uchun tabiat bilan munosabatga kirishib, tabiiy predmetlardan ishlab chiqarish qurollarini yasay boshlaydi. Ularni o'z ma'nfatlariga bo'ysundirib boradi. Buning natijasida o'sha predmetlar xususiyatini bilish, o'rganish va bu bilimni miyyada saqlab qolish, undan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyati va zaruriyati kelib chiqadi. Bundan quydagi xulosa kelib chiqadi: inson bilimining asosi amaliy faoliyat, ijtimoiy tajribadir. Har qanday kishi o'z amaliy faoliyati natijasida o'zini o'rab olgan narsalarni, voqealarni, xodisalarni bilib boradi va mehnat jarayonida bilimlarini rivojlantirib, boyitib brogan sari mukammallashtirib boraveradi. Xo'sh insonning bilishi obektiv reallikni o'z miyyasida aks ettirishi qanday amalga oshadi. Uning bilimi qanday vujudga keladi degan savolga qanday javob beramiz?

Insonning bilish jarayoni o'z mohiyati va xarakteri jixatdan o'zaro tafavut qiluvchi ikki bosqichdan iborat. Birinchisi sezgilar orqaliy hissiy bilish bo'lib, u sezgilar, qabul qilish, xotira va ta'savurdan iboratdir.

Ikkinchisi aqliy bilish bosqichi bo'lib tafakkurdan iborat.

Sezgilar orqaliy bilish insonning bilish jarayoni birinchi bosqichini tashkil qiluvchi sezgilar orqali bilish bilishning boshlang'ich pog'onasidir. Sezgilar, idrok, tasavvur orqaliy bilish – predmetlar yoki ular xossalari bilan obrazlar shaklida miyyamizda aks ettirishdir.

Obektiv reallik, yani tashqi olam, turli xil narsalar, xodisalarning ma'lum xossalari, issiq- sovuqligi, sho'r va chuchukligi bilan sezgi o'rginlarimizga, terimizda joylashgan nerevlarga, ta'mi bilan tilimizga, xidi bilan burnimizga, rangi bilan ko'zimizga, ovozi qulog'imizga ta'sir etib, shu organlarda joylashgan nervflar orqali bosh miyyaga borib yetadi, natijada predmetlarning xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning obrazlari vujudga keladi. [4]

Xulosa va yechimi. Xulosa qilib aytganda, har qanday inson uchun bilimning manbayi uning sezgisidir. Sababi inson birinchi va boshlang'ich bilimlarni sezgidan oladi. Insonning boshqa hamma bilimlari shu birinchi boshlang'ich bilimi asosida vujudga keladi.

Bu tabiiydir chunki odamni olam bilan bog'lovchi, undagi predmet va xodisalar to'g'risidagi tasavvur xosil qiluvchi sezgilar asosan besh turlidir: ko'rish, eshitish, ta'm-maza sezish, xid sezish, teri sezgisi. Sezishning boshqa turlari esa shu asosiy besh sezgidan kelib chiqadi yoki ularni to'ldiradi. Umuman olganda sezgi murakkab nerv sistemasini bilan bog'liq. U miyya vazifasi bilan bog'liq ekanligini hozirgi zamon biologiya fani isbotladi. Tash buyumlar inson ongi orqaligina sezgiga aylanan ekan. Demak, xulosa qilib aytsak, sezgi obektiv borliqning subektiv obrazidir. Sezgiga nisbatan murakkabroq psixik jarayon idrok deb ataladi.

Idrok sezish asosida vujudga keladi. Idrokni sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalari emas, balki predmet butun xolda aks ettiriladi. Masalan: biror bir agregatni, inshoatni idrok etadigan bo'lsak biz uning faqat ko'rinishini rangi yoki katta kichikligi kabi biror bir xislatini, xususiyatini aks ettirmasdan balki shu agregat, inshoatni bir butun obrazini o'z ongimizda xosil qilamiz.

Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miyya qobig'ining ma'lum qismidagi qo'zg'alish sezish, idrok ma'lum davrgacha o'z-o'zini qoldiradi. Shu izlarga asoslangan xolda inson ilgari idrok etgan predmetlarni o'z miyyasida qayta ishlab tiklashi mumkin. Masalan: avval ko'rgan predmetni (delani, odamni) qiyofasini, biror bir voqeani sodir bo'lish jarayonini va hokozo. Bunday qayta ishlab tiklangan obraz tasavvur deb ataladi. Demak tasavvur predmetlarning miyyada qolgan obrazlarining tiklanishi, obrazli xotira, obrazlarda eslashdir. Tasavvur bilimlarni saqlash va mustaxkamlash uchun xizmat qilish bilan birga, narsa va xodisalarning xususiyatlarini bilib olishda ham muayyan ro'l o'ynaydi.

Ulardan tashqari tasavvurning yana o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Bu xususiyatlar ining mavhum tafakkurga, bilishning oliy bosqichiga yaqin turganini ko'rsatadi.

Hissiy bilish to'g'risida gap yuritganda uning yana bir shakli to'g'risida aytib o'tish zarur. U ham bo'lsa hissiyotdir. Hissiyot kishining atrofidagi narsalarga, bilishga va shu kabilarga munosabatini ko'rsatadi. Bu emotsiya shakli deb ham yuritiladi. Har qanday kishi narsalar va hodisalardan o'zining ichki kechinmalardan xursand bo'ladi yoki xafa bo'ladi, uyaladi yoki g'ururlanadi va xokozo. Demak, hissiyot inson hissiy bilishining sezgi, idrok ta'savurlariga nisbatan murakkab shaklidir.

ADABIYOTLAR

1. Nishonovich, T. B., & Axtamo vich, I. S. (2023). EKOLOGIK TURIZM: ASOSIY TAMOYILLAR VA O 'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 33(4), 98-102.
2. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekistonda innovatsion faoliyatida fan va ta'limning rivojlanishi. Science Promotion, 1(1), 106-117.
3. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). O'zbekiston integratsiya jarayonida yoshlarning innovatsion ta'lim tizimining o 'rmi va ahamiyati. Science Promotion, 1(1), 78-91.
4. Tursunov, B. N., Tursonov, B., Valixonova, G., Nozima, M., Nasibjon, K., Badalboyeva, I., ... & Muhammadraxim, K. (2023). Globallashuv jarayonida internet tarixi, o 'rmi va ahamiyati. HOLDERS OF REASON, 1(1), 238-247.
5. Turaboeva, Y. R. (2023, September). SECRETS HIDDEN IN WOMEN'S JEWELRY. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 89-92).
6. Rustamjonovna, T. Y. (2023). Semantics In Uzbek Women's Jewelry. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 226-230.
7. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1993 Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Yangi Konstitutsiya-taraqqiyot qomusi. HOLDERS OF REASON, 1(1), 395-402.
8. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). Islohotlarning axloqiy jihatlari va jamiyatga tasiri. HOLDERS OF REASON, 1(1), 498-508.
9. Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., Mo'ydinov, X., & Ahmedova, U. (2023). XOLCHAYON SAROYI QO 'RIQLANISHGA MUHTOJ. HOLDERS OF REASON, 1(1), 350-361.
10. Mo'ydinov, X., Madina, K., Sulstonov, T. A., ZG'offorov, T. Y., & Ahmedova, U. (2023). Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili. HOLDERS OF REASON, 1(1), 475-484.
11. Mo'ydinov, X., Ahmedova, U., Madina, K., Sulstonov, T. A., & ZG'offorov, T. Y. (2023). Axloqiy qadiryat ijtimoiy-ma'daniy xodisa sifatida. HOLDERS OF REASON, 1(1), 509-525.